

DETEKTIV ASARLAR QAHRAMONLARIDA NEVROLINGVISTIK
MUOMMOLARNING YUZAGA KELISHI

(Agatha Christiening "The ABC murders" qahramonlari talqinida)

Xoliyorova Charosxon Davron qizi

77 373 01 05

Charosxondavronovna@gmail.com

Erkin tadqiqotchi. O'zMU. Xorijiy til va adabiyot kafedrası

Annotatsiya: Neyrolingvistika zamonaviy tilshunoslikning yangi sohasi hisoblanib u til va nerv sistemasi kesishuvida hosil bo'ladigan nutqdagi muommalarni o'rganadi. Ushbu maqolada A. Christiening "The ABC murders" nomli detektiv asari qahramonlari nutqida hosil bo'lgan muommalarni tahlil qilinadi. Unda asosan qahramonlarimizda kuchlai hayajon yoki qo'rquv bo'lgan vaqtda yuzaga kelgan nutqiy muommalar o'rganildi.

Kalit so'zlar: neyrolingvistika, detektiv, hayajon, qo'rquv, o'ng yarimshar va chap yarimshar miya

Annotation: Neurolinguistics is a new field of modern linguistics that studies speech problems that arise at the intersection of language and the nervous system. This article analyzes the speech problems of the characters in A. Christie's detective story "The ABC murders". It mainly studies the speech problems that arise when our characters are in a state of strong excitement or fear.

Keywords: neurolinguistics, detective, excitement, fear, right hemisphere and left hemisphere of the brain

Аннотация: Нейролингвистика — новое направление современной лингвистики, изучающее речевые проблемы, возникающие на стыке языка и нервной системы. В данной статье анализируются речевые проблемы персонажей детективного романа А. Кристи «Убийства по алфавиту». В основном изучаются речевые проблемы, возникающие, когда наши персонажи находятся в состоянии сильного волнения или страха.

Ключевые слова: нейролингвистика, детектив, волнение, страх, правое и левое полушарие мозга

Inson tanasi, uning harakatlari mukammal va ular necha yillardan beri olimlar qiziqishini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Inson bosh qismida joylashgan miya barcha tana a'zolarining boshqaruv tizimi ekanligi bugungi kunda barchaga ayon. Eramizdan avvalgi 3500 yillardayoq miya va uning ahamiyati olimlar e'tiboriga tushib ulgurgan[2:566]. Ularning fikriga ko'ra, bosh suyagining muayyan qismidagi jarohat tananing boshqa a'zolariga ham ziyon yetkazishi mumkin. Shu sababdan ular inson

"ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI" **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

a'zolari va ularning faoliyati miyaning turli maydonlariga bog'liq, deb hisoblaganlar. Ayniqsa, Gippokrat, Gerofil, Platon, Demokrit, Aristotel, Galen kabi zabardast faylasuf olimlarning xulosalari asosida o'sha qadimgi davrlardanoq inson tanasining har bir a'zosi faoliyati miya bilan aloqador ekanligi ta'kidlangan.

Insonni boshqa mavjudodlardan ajratib turuvchi til va uning ishlash mexanizmi ham aynan miya faoliyatiga bog'liq, ayni paytda tilning miya bilan bog'liqligi, ularning ayro holdagi tuzilishi, nutqiy faoliyat, nutqiy buzilishlar kabi hodisalarni o'rganuvchi zamonaviy soha – neyrolingvistika jadal rivojlanish bosqichida turibdi. Takidlanishicha “neyrolingvistika nevrologiya va tilshunoslik chorrahasida paydo bo'lgan fan sohasidir. Uni o'rganishning asosiy obyekti nutq xatti-harakatlarining miya mexanizmiga nisbatan til tizimidir. Neyrolingvistika, shuningdek, nutqiy faoliyat mexanizmlarining jarayonlarini, til, tafakkur va inson ongi o'rtasidagi munosabatlarni, nutqiy bayonotlarni yaratish usullarini o'rganadi” [4:53]. Yuqoridagi fikrlarga tayanib aytish mumkinki, neyrolingvistika nutqning paydo bo'lishi va nutq jarayonida yuzaga keladigan muommalarni o'rganadigan tilshunoslikning zamonaviy sohalaridan biridir.

Kuzatishlarimiz davomida inson nutqidagi muommoning sabablari doirasida qattiq hayajon yoki qo'rquv ham mavjudligi ma'lum bo'ldi. His-tuyg'ular kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotgani, nimalarni bilib olayotgani yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan ichki ehtirosli munosabatidir. His-tuyg'ularni boshdan kechirishning turli ko'rinishlari, hususan – hayajon, affekt, kayfiyat, stress (kuchli asabiylashish), ehtiros singari ko'rinishlari mavjud.

Olimlar miyani o'rganishi davomida qiziqarli bir hodisani kuzatishdi unda inson biror bir voqea sababli hissiy tajribaga ega bo'lganda, o'ng yarimsharning miya to'lqinlari juda faollashadi va yarimsharning miya to'lqinlarini bostiradi. Ya'ni kishi hissiyotlar bilan mashg'ul bo'lganda, atrofni aynan shu his tuyg'ular o'rnatgan filtrlar doirasida ko'radi, harakatlar, fikrlar his tuygular orqali boshqariladi va o'z o'rnida inson qilgan tanlovlar ularning his tuyg'ularining rahm shavqatiga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib tadqiqotchilar inson miya yarimsharlar faoliyatini nima muvozanatga olib kelishi mumkinligi haqida tadqiqotlar olib borishga kirishishdi. Ular bir qancha bahs va munozaralardan so'ng o'z fikringizga shubha qilish orqali fikringizni vaziyatga real qaytarishga erishishingiz mumkin degan to'xtamga kelishdi. Taxminan 2000 yil oldin rim stoik faylasufi Epiktet shunday degan edi: "Odamlarni narsalar emas, balki ularga qarashlari bezovta qiladi". Bu shuni anglatadiki, sizning fikrlash tarzingizga qarash va hissiy xafagarchilikni keltirib chiqargan narsaga bo'lgan munosabatingizni shubha ostiga qo'yish sizni fikrlashga yanada real yondashishga olib kelishi mumkin. Demakki, insonning his-tuyg'usi, fikrlashi, va hatti-harakati bir-biriga uzviy bog'liq bo'lar ekan.

Bazan inson kuchki hayajon, qo'rquv yoki stress tufayli nutqini yo'qotib qo'yishi, duduqlanib qolishi, ba'zan bitta gap yoki so'zni takror va takror aytishini

"ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI"
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

kuzatamiz. Keling yuqoridagi vaziyatlarni barchamizga tanish bo'lgan Agatha Christining "The ABC murders" detektiv asari qahramonlari nutqida qo'rquv, hayajon yoki uning oqibatlaridan kelib chiqadigan nutqiy muammolari orqali tahlil qilamiz. Bizga ma'lumki detektiv asarlar asosan jinoyat sodir bo'gani va uning aybdorlarini izlash uchun qidiruv olib borish jarayonlarini yoritib beradi. Bunday vaziyatda izquvar, politsiyachilar gumonlanuvchilarni tergovga tortadi va sodir bo'lgan jinoyat doirasida savol javob o'tkazadi. Tergov jarayoni umuman olganda ko'p insonlarni vahimaga soladigan va asabiylashtiradigan holatdir. Ushbu vaziyatni o'quvchilarga to'laqonli yetkazib berishda adib yoki adiba asar qahramonlari nutqida qattiq hayajon yokida qo'rquv tufayli neyrolingvistik hodisalarni ko'rsatib berishadi. Biz esa aynan shu muammolarni tahlil qilishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

- *"Pas mal. Not long ago I had a narrow escape."*
- *"Of failure?"*
- *"No-no" Poirot looked shocked. But I-I, Hercule Poirot, was nearly exterminated. [1:4].*

Yuqorida keltirilgan qisqa dialogda ikki do'stning suhbatida yuzaga kelgan neyrolingvistik holatni kuzatishimiz mumkin. Ya'ni ko'plab jinoyatni ochib kelayotgan Mr. Poirot ma'lum bir tergovdan o'zini tortganini bayon qilmoqchi bo'lgan vaqtda, uning bu harakatini hamkasbi muvoffoqiyatsizlik deb baholamoqda. Bu esa izquvar uchun kutilmagan holatni keltirib chiqarganini va bu jarayonda so'zlovchi nutqini yo'qotib so'zlarni takrorlab davom *no-no.. but I-I...* tarzida ettira olmagan holatga duch kelamiz. Yozuvchi o'quvchilarga yanada tushunarli bo'lishi uchun shocked so'zi orqali Mr. Poirotning hayratini ko'rsatib bera olgan.

- *What do you want with me? I have not done nothing. It is a shame and a scandal to bring me here!*

His manner changed suddenly.

- *No, no I do not mean that – you would not hurt a poor old man – not be hard on him. Everyone is hard on poor old Franz. Poor old Franz.*

Mr Ascher started weep.

Keltirilgan ushbu misolda ko'rishimiz mumkinki, qahramonimizni tergovchi so'roq qilgan vaqtda, u qattiq qo'rquv tufayli kuchli hayajonni boshidan kechirdi va so'zlarini yo'qotib qo'ydi. Bu vaqtda uning o'ng miyya faoliyati ustunlik qilib malum bir vaqt o'zini gaplarini tushunmay qolganini ko'rishimiz mumkin. Muallif bu jarayonda bizga neyrolingvistik yani qattiq qo'rquv va hayajon orqali nutqini unutish yoki duduqlanish holatini *no* so'zinini takroran ishlatish orqali yaqqol ko'rsatib bergan.

- *Perhaps you picked the railway guide or moved along the counter?*
- *Didn't touch b- thing. I did just what I said*
- *And you did not see anyone leaving the shop before you yourself got there?*
- *Didn't see any such thing: what I say is, why pitch on me -?*

Poirot rose.

- *Nobody is pitching upon you – yet. Bonsoir, monsieur.* [1:50].

Bu dialogda izquvar gumondorlardan birini tergov qilayotgan holatni kuzatishimiz mumkin. Unda gumondor juda asabiy inson sifatida tasvirlangan bo'lib. Unga berilayotgan har bitta savolni o'ziga nisbatan ayblov deb qabul qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Va bu vaziyatda gumondor shaxs (Mr Riddell) kuchli his hayajonga berilishi oqibatida uning harakatlari va hulq atvorini aynan aql emas balki hayajon boshqarayotganini yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, inson miyasi juda murakkab tuzilgan mexanizmdir va u insonning barcha a'zolarini shu bilan birga nutq faoliyatini ham boshqaradi. Detektiv asar qahramonlarimiz nutqida uchragan neyrolingvistik muommolarni ko'rib chiqar ekanmiz, hayajon va qo'rquv aynan shu muommolar paydo bo'lishi uchun asosiy omil deb oldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Christie A.M.C., 'The ABC murders' London., 2013
2. Винарская Е.Н., Кузнецов С.Н. Нейролингвистика // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 566.
3. Винарская Е.Н., Кузнецов С.Н. Нейролингвистика // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 566.
4. Tojiyev A., Novshadbekova D. Zamonaviy neyrolingvistikaning tilshunoslikdagi ahamiyati / International conference on learning and teaching 2022/6, – B. 53.
5. <https://en.wikipedia.org/wiki/Neurolinguistics>
6. Djumabaeva, J. S., & Avazmatova, M. M. (2022). International Journal of Social Science Research and Review.
7. Djumabaeva, J. S. (2015). Plesionymy and graduonymy in English and Uzbek. European Journal of Literature and Linguistics, (2), 55-58.